

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA ULARNING HOZIRGI TA'LIM TIZIMIDAGI TATBIQI

Shodmonova Feruza Rizoyevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

2-kurs magistrani

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharqning buyuk mutafakkirlari - Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Nizomulmulk, Jomiy va boshqalarning ta'lim-tarbiya sohasiga oid g'oyalari o'rganiladi. Ularning axloqiy yetuklik, aqliy rivojlanish, ilmga muhabbat, ma'naviy kamolotga erishish, odob va mehnatsevarlik haqidagi pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi. Xususan, bu g'oyalar bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, uzluksizlik tamoyillari, tarbiyaviy texnologiyalar va innovatsion o'quv metodikalari bilan qanday bog'lanishi ochib beriladi. Maqolada, qadimiy merosni hozirgi ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha nazariy asoslar bilan bir qatorda, amaliy taklif va tavsiyalar ham beriladi..

Kalit so'zlar. Sharq mutafakkirlari, pedagogik meros, tarbiya nazariyalari, zamonaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz ta'lim, axloqiy tarbiya, ilmga muhabbat, ma'naviy kamolot.

Ta'lim tizimi har bir jamiyatning madaniy, ma'naviy va ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Bugungi global taraqqiyot sharoitida ta'limning insonparvarlik mohiyatini saqlab qolish, uni shaxsga yo'naltirilgan va uzluksiz yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, qadimiy pedagogik tafakkur merosini o'rganish, ayniqsa Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya g'oyalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Nizomulmulk kabi mutafakkirlar asarlarida shaxs kamoloti, ilm-fan ahamiyati, axloqiy tarbiya, jamiyat farovonligi, bilimga bo'lgan intilish markaziy o'rinni egallagan. Ular nafaqat ilmiy-falsafiy qarashlar muallifi, balki yetuk pedagoglar sifatida inson tarbiyasi, didaktika va o'qitish metodikasi haqida ham chuqur fikrlar bildirganlar.

Zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy yondashuvi, tarbiyaviy texnologiyalar, integratsiyalashgan fanlararo yondashuvlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya shakllari kabi tamoyillar aslida qadimiy pedagogik meros bilan uzviy bog'liq. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari tahlil qilinadi hamda ularni hozirgi ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya g'oyalari asrlar davomida ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar

shahri” asarida jamiyat taraqqiyoti uchun kerakli bo’lgan shaxs sifatlarini bayon qilarkan, ularning axloqiy, ma’naviy va aqliy kamolot darajasiga urg’u beradi. Uning fikricha, fozil jamiyat fozil shaxslardan tashkil topadi va bu, o’z navbatida, tarbiya orqali yuzaga keladi.

Ibn Sino o’zining pedagogik qarashlarida bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish, uning aqliy va jismoniy rivojlanishini uyg’un holda rivojlantirish zarurligini qayd etadi. Unga ko’ra, tarbiya - bu faqat axloqiy fazilatlarni singdirish emas, balki inson ichki dunyosini uyg’otish, tafakkurni rivojlantirish va mustaqil fikrlashga yo’naltirishdir. Uning “Donishnoma” asari bugungi metodik qo’llanmalarda tanqidiy fikrlash va holistik ta’lim tamoyillari bilan uyg’un.

Abu Rayhon Beruniy ilmning tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta’kidlab, fanlararo yondashuv zarurligini ilgari suradi. Uning qarashlari hozirgi STEAM yondashuviga uyg’un keladi.

Alisher Navoiy esa insonparvarlik, axloqiy poklik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni ta’lim-tarbiya asosiga qo’ygan. U o’z asarlarida til tarbiyasi, badiiy estetik didni shakllantirish, adabiyot orqali axloqiy qadriyatlarni singdirish zarurligini ilgari suradi.

Hozirgi kunda O’zbekistonda pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hamda davlat siyosatida qadimiy pedagogik merosga tayanilayotganini ko’rish mumkin. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” (I.A. Karimov) asarida milliy g’oyaning asosiy manbai sifatida Sharq allomalari merosi e’tirof etiladi.

Shunga qaramay, hozirgi ta’lim tizimida bu g’oyalar to’laqonli tatbiq etilmayapti. Bir tomondan, tarixiy bilimlar faqat nazariy yo’nalishda o’rganilmoqda; ikkinchi tomondan esa - dars metodikasida, o’quv dasturlarida va pedagogik faoliyatda amaliy qo’llanishi past darajada qolmoqda.

Xulosa

Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlari inson shaxsining ma’naviy, axloqiy va aqliy kamolotini asosiy maqsad qilib qo’yadi. Ularning pedagogik merosi hozirgi ta’lim tizimi uchun muhim metodik, g’oyaviy va tarbiyaviy manba bo’lib xizmat qilishi mumkin. Bu g’oyalarni zamonaviy ta’lim shakl va uslublariga tatbiq etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tavsiyalar

1. O’qitish metodikalarida Forobiy, Ibn Sino, Beruniy g’oyalarini dars mazmuniga integratsiyalash lozim.
2. O’quv dasturlarida qadimiy pedagogik merosni hozirgi zamonaviy tamoyillar bilan uyg’unlashtirgan bloklar joriy etilishi tavsiya etiladi.
3. Tarix, adabiyot, ma’naviyat kabi fanlarda Sharq allomalari qarashlariga asoslangan interfaol metodlar ishlab chiqilishi kerak.
4. O’qituvchilarni bu borada maxsus qayta tayyorlash kurslari tashkil qilish zarur.

5. Talabalar orasida Sharq merosini o'rganishga qiziqishni oshirish uchun motivatsion loyiha va tanlovlar yo'lga qo'yilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino A. Donishnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1980.
3. Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Nizomulmuluk. Siyosatnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1991.
5. Jomiy A. Bahoriston. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
6. Hasanboyeva O., Ochilov M., Abdurahmonova N. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
7. To'raqulova M. Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.